



2026-yil 24-mart
01-04-18/2116-son

"Platinum metal industry"
MChJga

(Samarqand viloyati Samarqand tumani
"Yangiyo'y" MFY Spitamen ko'chasi 1-uy)

nusxasi: **"Samarqand MET" filialiga**

2026-yil 11-martdagi
628/26-sonli murojaatga asosan

"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ Vazirlar Mahkamasining **"Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"** 2024-yil 15-iyundagi 338-son qarori III bo'limi talablariga muvofiq Samarqand viloyati Nurobod tumani "Sazag'on" massivida qurilishi yakunlangan yillik quvvati 200 ming tonna bo'lgan armatura ishlab chiqarish binosining elektr ta'minoti uchun **9500 kVt** bo'lgan quvvatni elektr tarmoqlariga ulash yuzasidan ixtisoslashgan loyiha tashkiloti tomonidan **ulanish bo'yicha tadqiqot o'tkazilishi** lozimligi ma'lum qilinadi.

Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalariga asosan:

- tarmoqqa ulanish tadqiqotining ixtisoslashgan loyiha tashkiloti tomonidan amalga oshirilishi;
- tadqiqot so'ralayotgan ulanishni tarmoqning ishonchliligiga ta'sirini, tarmoqqa ulanish uchun texnik yechimlar tahlili, tarmoqqa ulanish nuqtasi infratuzilmasining texnik xarakteristikalarini, Foydalanuvchiga qo'yiladigan texnik talablar;
- Foydalanuvchiga qo'yiladigan ekspluatatsiya talablari, tarmoqqa ulanish infratuzilmasining qurilishi xarajatlarini baholash va boshqalarni o'z ichiga olishi;
- tarmoqqa ulanish tadqiqotini amalga oshiruvchi tarmoq loyiha kompaniyasi barcha zaruriy tahlillarning (*elektr energiyasi oqimlari, xavfsizlik, reaktiv quvvatni boshqarish, qisqa tutashuv toklari, statik va dinamik turg'unlik, elektr energiyasi sifati*) o'tkazishi;
- tarmoqqa ulanish tadqiqotida ulanish bo'yicha taklif etilgan variantlarning tasdiqlangan Uzatish tizimini rivojlantirish rejasi bilan uyg'unlashtirilishi;

- loyiha tashkiloti ishlab chiqilgan texnik yechimlarni Uzatish tizimi operatori va Tizim operatoriga kelishish uchun kiritishi;

- podstansiyalar, elektr uzatish tarmoqlari va (yoki) transformatorlarning yuklanish darajasi maksimal qiymatiga yetgan bo'lsa, foydalanuvchi o'z hisobidan transformator yoki elektr uzatish tarmoqlarini o'zgartirish taklifini berishi mumkinligi belgilangani eslatib o'tiladi.

Shu munosabat bilan, me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan ishlar bajarilganidan so'ng o'rnatilgan tartibda **texnik shart** berilishi ma'lum qilinadi.

**Boshqaruv raisi
o'rinbosari**



F. Qurbonov